QORAKO‘L XALQARO MAKTAB: TA’LIM SIFATI VA JAHON TA’LIM MAKTABIGA AYLANISH YO‘LI

Qurbonov Farrux Ergashevich
Oriyental universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim muassasalarining xalqaro miqyosdagi o‘rni ularning ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va o‘quvchilarni jahon ta’lim makoniga integratsiyalash darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, Qorako‘l International School umumiy o‘rta ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali xalqaro ta’lim makonida o‘z o‘rnini shakllantirishga intilayotgan zamonaviy ta’lim muassasasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni. “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–330-son qarori. “Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi №823-son qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” kabi normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim tizimida innovatsion va intellektual kapitalni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish jarayonlarining huquqiy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, 2030-yilgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kabi hujjatlar Qorako‘l International School kabi zamonaviy ta’lim muassasalarining shakllanishi va xalqaro maydonga chiqishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qorako‘l Xalqaro maktab - bu O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida 2023 yilda rasman ro‘yxatdan o‘tgan nodavlat ta’lim muassasasi bo‘lib, zamonaviy ta’lim bilan ishlaydi va umumiy o‘rta ta’limni jahon standartlariga muvofiq tarzida tashkil etishni maqsad qilgan. “Qorako‘l International School” o‘zining ta’limiy yo‘nalishlari va innovatsion o‘quv uslubi bilan talabalarni bilimga va konseptual fikrlashga tayyorlaydi, shu bilan birga xalqaro imtihonlarga (masalan SAT va IELTS) ham tayyorlaydi. Asosiy

maqsad o‘quvchilarni nafaqat milliy, balki xalqaro bilim maydonchasida raqobatli, kreativ va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Buxoro viloyat hokimining 2013-yil 28-dekabrdagi 407-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2008-yil 28-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat umumta’lim muassasalari to‘g‘risida”gi Nizomi asosida “52-son ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi”ni “1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati”ga o‘zgartirildi. 2019-yilning 9-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 654-sonli qarori bilan “Xalqaro matematika maktabi” nomiga o‘zgartirildi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularni jahon ta’lim maydoniga integratsiyalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida “Xalqaro matematika maktabi”ni tashkil etish to‘g‘risida qabul qilingan qaror zamonaviy ta’lim siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi — iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, matematika fani bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ta’lim jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga, mazkur ta’lim muassasasi orqali mamlakatning xalqaro ilmiy va ta’limiy nufuzini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli mexanizmlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Qarorga muvofiq, Qorako‘l tumanidagi mavjud ixtisoslashtirilgan maktab-internatga “xalqaro maktab” maqomi berilishi va uning moddiy-texnik bazasini kengaytirish uchun qo‘shimcha infratuzilmalarni jalb etish belgilangan. Bu esa ta’lim muassasasining institutsional salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro maktabning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- umumiy o‘rta ta’lim standartlari asosida aniq va tabiiy fanlarni chuqur o‘qitish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;
- o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish;
- mahalliy va xorijiy yuqori malakali pedagog kadrlarni jalb etish;
- o‘quvchilarni xalqaro olimpiadalar va tanlovlarga tayyorlash.

Mazkur vazifalar ta’lim tizimida intellektual kapitalni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ochish va ularni innovatsion faoliyatga jalb etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qarorda ta’lim jarayonini tashkil etishning institutsional va tashkiliy mexanizmlari ham aniq belgilab berilgan. Jumladan, o‘quvchilarni tanlab olishda test sinovlari va psixologo-pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish, xorijiy o‘qituvchilarni jalb qilish, hamda pedagog xodimlarni rag‘batlantirish maqsadida qo‘shimcha moliyaviy ustamalar joriy etish nazarda tutilgan. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Infratuzilmani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi - jumladan, zamonaviy o‘quv laboratoriyalari, yotoqxona, kutubxona va axborot texnologiyalari bilan jihozlash — ta’lim muhitining innovatsion xarakterini ta’minlaydi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlaydi.

Qorako‘l tumanida “Xalqaro matematika maktabi”ni tashkil etish to‘g‘risidagi mazkur qaror ta’lim tizimida intellektual va innovatsion kapitalni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifoda etadi. Ushbu tashabbus nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish va milliy ta’lim tizimini global ta’lim maydoniga integratsiyalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

“Qorako‘l International School” 26-dekabr 2023 yilda rasman registr qilingan nodavlat notijorat ta’lim muassasasi sifatida tashkil etilgan. Asosiy tashkil etuvchisi va rahbarligi - Norchayev Dovruq Rustam o‘g‘li bo‘lib, u maktabni zamonaviy bilim berish markaziga aylantirishni ko‘zlagan. Maktabning ustaviy jamg‘armasi 100 000 000 UZS, bu uning bilim berish infratuzilmasini yaratish va uzluksiz rivojlantirishga bazaviy mablag‘ hisoblanadi.

Maqtabning ta’lim tizimi zamonaviy yo‘nalishlarda tarkiblangan bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy, akademik va amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan qadamlar bilan rivojlantiradi. Ta’lim 1-sinfdan 11-sinfgacha olib boriladi va o‘quv dasturlari faqat davlat standartlariga emas, balki qo‘shimcha intellektual rivojlanish va xalqaro imtiyozlarga tayyorlashga ham yo‘naltirilgan. Maxsus kurslar, olimpiadaga tayyorlash va analitik fikrlashni rivojlantiruvchi dasturlar bilan birga, maktab o‘quvchilarni xalqaro standarlar, olimpiadalar va testlar bo‘yicha tayyorlaydi.

Mazkur maktabning xalqaro miqyosdagi ahamiyati, avvalo, uning ta’lim mazmunida xalqaro standartlar elementlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Xususan, o‘quvchilarni xalqaro imtihonlarga, jumladan, IELTS va SAT kabi baholash tizimlariga tayyorlash orqali maktab bitiruvchilarining xorijiy oliy ta’lim muassasalariga kirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu esa maktabning global ta’lim bozoriga integratsiyalashuv darajasini oshiradi. Shuningdek, maktabda qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim metodlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kompetensiyalar xalqaro mehnat bozorida yuqori baholanadigan universal ko‘nikmalar qatoriga kiradi.

Qorako‘l International School’ning yana bir muhim jihati - bu inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvidir. Pedagog kadrlarning yuqori malakasi, ularning innovatsion faolligi va xalqaro tajribani o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi maktabning ta’lim sifatini global standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maktabda o‘quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan muhit yaratilgan bo‘lib, bu ularning xalqaro olimpiadalar va ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa maktabning xalqaro

reytinglar va ta’lim sifatini baholash tizimlarida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabda o‘qitish jarayonida tajribali va olimpiada g‘oliblaridan tashkil topgan ustozlar jamoasi faoliyat ko‘rsatadi. Bu akademik jamoa nafaqat fanni tushuntirish, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini ham o‘quvchilarda shakllantiradi. Ustozlar o‘z faoliyatida maktabning maxsus ishlab chiqilgan metodologiyasi va IDC brendidagi ta’lim materiallaridan foydalanadilar, bu boshqa umumiy maktablardan farqli ravishda yuqori samarani ta’minlaydi.

Qorako‘l International School talabalarni xalqaro standartlarga muvofiq ta’lim olishga tayyorlaydi. Masalan:

- SAT (Scholastic Assessment Test) - AQSH va boshqa mamlakatlarda o‘qish uchun talab etiladi;
- IELTS (International English Language Testing System) - ingliz tilini xalqaro darajada baholaydi.

Bu imtihonlarga tayyorlash maktabning ta’lim strategiyasida muhim yo‘nalish hisoblanadi va o‘quvchilarni xalqaro olimpiadalar, chet elda ta’lim olish va akademik muvaffaqiyatga yo‘naltirish imkonini beradi.

Qorako‘l maktabida talabalar uchun zamonaviy binolar, sport zallari, sport maydonlari, yotoqxona xizmatlari va 3–4-marta ovqatlanish xizmatlari mavjud. Shuningdek, maktabda IT va ingliz tili, sport klublari, yaratish to‘garaklari ham amalga oshiriladi, bu bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabda transport xizmati ham bor (Toshkent va atrof hududlar uchun), bu ota-onalarga qulayliklarni ta’minlaydi.

Maktabda yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, hamda o‘quvchilarni fanlarga yanada qiziqtirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish voyaga yetmagan yoshlarni turli yo‘llarga kirishlarini oldini olish to‘g‘risidagi chora-tadbirlari Xalqaro matematika maktabida eng saviyada tashkil etiladi va o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon etish uchun bor imkolniyatlardan unumli foydalanishadi. O‘qituvchilar va maktab rahbariyati tomonidan har bir tadbir yoki yshnalishdagi olib borilayotgan ishlar tahlil qilinib natijadorligi bo‘yicha hisobotlar olib boriladi. O‘quvchilarni erkin fikrlashga, dars jarayonlaridan tashqari o‘zlari qiziqqan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga imkoniyat berilsa, ertaga fanlardan ham erkin fikr yuritib mustaqil fikrlashni o‘rganadi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil hayotga tayyorlanib borishida bir qadam bo‘ladi.

Qorako‘l maktabi yuqori samarali ta’lim berishni maqsad qilib qo‘ygan va fan olimpiadalariga tayyorlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida urg‘u beradi. Matimatika, fizika va boshqa aniq fanlar

chuqurlashtirilgan darajada o‘qitiladi, hamda o‘quvchilar bu fanlar bo‘yicha xalqaro va milliy olimpiadalarda ishtirok etishi uchun tayyorlanadi.

Qorako‘l International School nafaqat bilim berish muassasasi, balki oila va jamiyat bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatadi. Ota-onalarning fikiri va talabalar ishi muntazam kuzatib boriladi. Maktab jamoasi ta’lim sifatini har yili baholaydi va yangilangan o‘quv dasturlari bilan bolalarni kelajakka tayyorlaydi.

Xulosa. Qorako‘l Xalqaro maktab - zamonaviy ta’lim muassasasi bo‘lib, u oqilona bo‘lgan ta’lim strategiyasi, xalqaro standartlarga tayyorlash tizimi va innovatsion o‘qitish barobarligi bilan ajralib turadi. Bu maktab nafaqat umumiy ta’limni, balki umumjahon bilim standartlariga muvofiq bilim berishni maqsad qilib qo‘ygan tashkilotlardan biri sifatida o‘z o‘rin topgan va talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qorako‘l International School xalqaro ta’lim standartlarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qiluvchi, o‘quvchilarni global raqobat muhitiga tayyorlovchi va intellektual kapitalni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion ta’lim muassasasi sifatida xalqaro miqyosda muayyan ahamiyat kasb etmoqda. Uning faoliyati milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni. “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–330-son qarori. “Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi №823-son qarori. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”.Yusufov D. Ta’lim tizimida intellektual kapitalni boshqarish asoslari. — Tashkent: Fan, 2021.
7. Karimov S. Innovatsion ta’lim va boshqaruv samaradorligi. — Tashkent: O‘zbekiston, 2020.
8. Islomov A. Umumta’lim maktablarida innovatsion kapitalni rivojlantirish mexanizmlari. — Tashkent: Pedagogika, 2022.